

“TASDIQLAYMAN”
Oziq-ovqat texnologiyasi va
muhandisligi xalqaro instituti rektori



R.Tojiyev

2023 yil

**Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi institutiga ishga qabul qilinayotgan
nomzodlarni tekshirish bo‘yicha**

YO‘RIQNOMA

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo‘riqnoma Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi instituti, uning huzuridagi akademik litsey va texnikumlar institut tasarrufidagi fakultetlar hamda bo‘linmalarga (bundan keyin - Institut) ishga qabul qilishda nomzodlar tekshiruvini o‘tkazishning tamoyillari, talablari, tartibi va muddatlarini belgilovchi ichki hujjat hisoblanadi.

2. Ushbu Yo‘riqnomaning maqsadlari quyidagilardir:

nomzod tomonidan taqdim etilgan o‘zi, uning professional faoliyati, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarindoshlik va tijorat aloqalari haqidagi ma‘lumotlarni tekshirish;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Institutning ichki hujjatlari talablariga muvofiq halol, sifatli, puxta, holis amalga oshirishga qodir jismoniy shaxslar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishga erishilishini ta‘miniash;

Institutda lavozim majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lmagan, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan shuningdek ularni ishga olish obro‘, korrupsiyaga oid yoki boshqa xatarlarga olib keluvchi nomzodlar bilan mehnat munosabatlariga kirishish xatarini minimallashtirish;

rahbarlik va moddiy javobgarlik bilan bog‘liq lavozimlarga bilimli, halol, vijdonli, qonunga itoatkor xodimlarni tanlab olish.

3. Institutning nomzodlarni tanlash jarayonida bevosita ishtirok etadigan xodimlari mazkur Yo‘riqnoma bilan belgilangan talablarga rioya qilish uchun shaxsan javobgardirlar.

4. Ushbu Yo‘riqnoma qoidalarining buzilishida aybdor xodimlar Institut, huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoki boshqa shaxslar tashabbusi bilan. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Institutning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va asoslarda intizomiy va boshqa turdagi javobgarlikka tortiladi.

5. Ushbu Yo‘riqnoma ishga qabul qilishda O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari bilan alohida tartib belgilangan lavozimlarga nisbatan tadbiriq etilmaydi.

6. Ushbu Yo‘riqnoma maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

korrupsiyaviy harakatlar - xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlarini yodida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor

bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish. taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

manfaatlar to'qnashuvi - Institut xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

nomzod - Institutning bo'sh ish o'mi talablariga javob beruvchi, vakant ish joyiga tanlab olingan jismoniy shaxs.

noqonuniy foyda – va'da qilinadigan, taklif etiladigan, taqdim etiladigan yoki qonuniy asossiz olinadigan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk, yoki mulkiy huquqlar, afzalliklar, imtiyozlar, xizmatlar, nomoddiy aktivlar, boshqa har qanday moddiy yoki nomoddiy foyda;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi - xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablagdari. moddiy yoki nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari);

yaqin qarindoshlar - qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari.

II. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirishga qo'yilgan umumiy talablar va ularning muddatlari

7. Inson resurslarini boshqarish bo'limi va Korrupsiyaga qarshi kurashish «komplayens nazorat» tizimini boshqarish bo'limlari nomzodlarni tekshirish uchun mas'ul hisoblanadi.

8. Tekshiruv barcha doimiy va muddatli lavozimlarga nomzodlar, shuningdek fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha qabul qilingan nomzodlarga nisbatan amalga oshiriladi.

9. Agar xodimlarni tanlab olish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (keyingi o'rinlarda - DXRA) tomonidan amalga oshirilsa, nomzodlarni tekshirish nomzod qabul komissiyasi bayonnomasi bilan tasdiqlangandan so'ng, biroq mehnat shartnomasi tuzilmasidan oldin amalga oshiriladi.

10. Agar nomzodlarni tanlab olish DXRA ishtirokisiz amalga oshirilsa. U holda ishga qabul qilinayotgan nomzod professional tanlov va (yoki) testdan muvaffaqiyatli o'tgach, biroq mehnat shartnomasi tuzilmasdan avval tekshiriladi.

11. Nomzodni tekshirish 5 (besh) ish kunigacha bo'lgan muddatda amalga oshiriladi.

12. Nomzodni belgilangan muddatlarda tekshirish uzrli sabablarga ko'ra imkonsiz bo'lsa, uning davomiyligi 5 (besh) ish kunigacha bo'lgan muddatga uzaytirilishi mumkin.

III. Tekshiruv uchun hujjatlar va ma'lumotlarni olish

13. Tekshiruvni o'tkazish uchun Ijrochi nomzoddan quyidagi hujjatlarni olishi kerak:

O'zbekistan Respublikasining mehnat kodeksi 80-bandiga muvofiq ishga qabul qilish uchun talab qilinadigan hujjatlarning nusxalari;

Nomzod tomonidan to'liq to'ldirilgan va imzolangan *Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi institutidagi manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizomiga* 1-ilova shaklidagi so'rov-ma'lumotnoma;

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi institutidagi manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizomining 2- va 3-ilovasiga muvofiq manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi yoki mavjud emasligi haqidagi ariza.

14. Zarurat bo'lganda Ijrochi nomzoddan boshqa hujjatlarni taqdim etishni ham so'rashi mumkin, ammo nomzod (Uzbekistan Respublikasi Mehnat kodeksida ko'zda tutilmagan hujjatlarni taqdim etmasligi uni ishga qabul qilmaslikka sabab bo'la olmaydi.

15. So'rov-ma'lumotnoma qabul qilinganda, hujjatning to'ldirilmagan qismiga Ijrochi nomzoddan ko'rsatilmagan ma'lumotlarni talab qilishi kerak.

16. Nomzod zarur So'rov-ma'lumotnomani ko'rsatishni yozma ravishda rad etsa, Ijrochi ma'lumotlarga tayangan holda o'z ixtiyoridagi axborotdan erkin foydalanib, shuningdek, tegishli organ va muassasalarga rasmiy So'rovnoma jo'natib, olingan ma'lumotlar asosida nomzodni tekshirishi mumkin. Ushbu holatda o'rganish muddati mazkur Yo'riqnomaning 11-12-bandlariga muvofiq uzaytirilishi mumkin. Bunda Ijrochi tekshirish natijalari haqidagi xulosada (mazkur Yo'riqnomaning 2-ilovasi shakliga muvofiq) tegishli belgi qo'yadi.

IV. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish uchun axborot manbalari

17. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish doirasida nomzoddan olingan ma'lumotlar, shuningdek ochiq manbalardan yoki rasmiy So'rovlar yuborish orqali olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va ishlash amalga oshiriladi.

18. Ma'lumotlarni yig'ish ishga joylashayotgan nomzod haqidagi umumiy va holis fikrni shakllantirish, nomzoddan olingan, jumladan ma'lumotnomada qayd etilgan. Nomzodning <https://vacancy.argos.uz> saytidagi shaxsiy profilidagi hujjatlar va ma'lumotlar ishonchligini baholash, shuningdek o'zi haqidagi ma'lumotlarni yashirish yoki soxtalashtirish alomatlarini yo'qligini tahlil qilish uchun barcha ochiq axborot manbalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

19. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish uchun axborot manbalari qonuniylik va holislik talablariga javob berishi lozim. Ijrochi boshqa davlat organlari va tashkilotlariga, nomzodning avvalgi ish joylari, o'quv muassasalari va h.k larga taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish uchun rasmiy So'rov yuborish mumkin.

20. Ijrochi huquqni muhofaza qilish organlariga So'rov yuborish orqali nomzodning sudlanganligi, firibgarlik, korrupsiya va zo'ravonlik bilan bog'liq ishlarga aloqadorligini tekshirishi mumkin.

21. Nomzod haqidagi ma'lumotlarni tekshirish uchun quyidagi ochiq axborot manbalaridan

foydalanish mumkin:

Davlat xizmatlari agentligining yuridik shaxslar va yakka tadbirkorlar ma'lumotlarini tekshirish bo'yicha platformasi <https://fo.birdarcha.uz/sZru landing>

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat reyestri <https://stat.uz/ru/uslugi-1/svedeniya-iz-egrpo>

Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali https://my.soliq.uz/main/?!_ang=ru

O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlari portal <https://data.gov.uz/ru>

Yer resurslari va davlat kadastr boshqarmasi - <http://kadastr.uz/ru/>

Ijro hujjatlari bo'yicha qarzdorlarning ma'lumotlar bazasi - <https://mib.uz>

Axborot qidiruv tizimlari (masalan. Google, Yandex va h.k.) va h.k.

Ushbu ro'yxat zarur bo'lganda o'zgartirilishi va kengaytirilishi mumkin bo'lgan manbalarining taxminiy ro'yxatini ifodalaydi.

V. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshiruvini o'tkazish yo'nalishlari

22. Belgilangan joylarda tekshiruvlar o'tkazish majburiydir. Bunday holda har bir aniq holatda, agar kerak bo'lsa, tekshirish sohalari ro'yxati kengaytirilishi mumkin.

23. Nomzodlarni tekshirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi: nomzodda tugatilmagan sudlanganlik holati va (yoki) iqtisodiy, jumladan korrupsiyaviy harakterdagi qonunbuzarliklar munosabati bilan uni ma'muriy, jinoiy yoki intizomiy javobgarlikka tortish faktlari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar yo'qligi;

sud organlari tomonidan qo'yilgan rahbarlik lavozimlarini egallashga taqiq yo'qligi - rahbarlik lavozimiga nomzod uchun;

avvalgi ish joylaridan salbiy tavsianomalar yo'qligi;

nomzodda manfaatlar to'qnashuvi alomatlari yo'qligi;

nomzodga nisbatan boshqa xatar indikatorlari yo'qligi (jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida namoyish etilgan hayot tarzi rasmiy ish haqiga mos kelmaydi va boshqalar).

24. Qayd etilgan yo'nalishlar bo'yicha tekshiruv o'tkazish majburiy. Bunda tekshiruv yo'nalishlari ro'yxati zaruratga qarab har bir aniq holatda kengaytirilishi mumkin.

VI. Tekshiruv natijalari

25. Nomzodni tekshiruvini o'tkazish natijalari bo'yicha Ijrochi tomonidan Nomzod tekshirilgani to'g'risidagi hisobot tuzilib (ushbu Yo'riqnomani 1-ilova shakli bo'yicha), mazkur hisobot Inson resurslarini boshqarish bo'limida saqlanadi. O'tkazilgan tekshiruv va uning natijalariga oid ma'lumotlar Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish reyestri (ushbu Yo'riqnomaga 2-ilova)ga kiritiladi.

26. Institutning Inson resurslarini boshqarish bo'limi institutdagi nomzodlarni tekshirish reyestriga kiritiladigan ma'lumotlarni yig'ish va ushbu Reyestri aktual holda saqlash uchun javobgar hisoblanadi.

27. Tekshiruv natijalari to'g'risidagi hisobotning 3 bo'limidagi 3.1, 3.2, 3.3 yoki 3.4 bandlari

savollariga bitta va undan ko'p xavf indikatorlari mavjud bo'lgan taqdirda ("Ha" javoblari) ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish natijalari bo'yicha salbiy xulosa kiritiladi.

3.5 yoki 3.6 bandlaridagi savollardan biriga bittasiga bo'lsa ham bir va undan ortiq xavf indikatorlari ("Ha" javoblari) mavjud bo'lgan taqdirda, tekshiruv o'tkazayotgan shaxs vaziyatni korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi yoki mavjud emasligi bo'yicha baholaydi.

28. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud bo'lgan taqdirda tekshiruv o'tkazayotgan shaxs ulami kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni taklif qiladi yoki bunday xatarlar darajasini pasaytirish imkoni bo'lmagan taqdirda nomzodni tekshirish natijalari bo'yicha salbiy xulosa beradi.

29. Salbiy xulosa berilgan taqdirda nomzodni, shu jumladan hududiy va tarkibiy bo'linmalarga ishga qabul qilish Institut rahbariyati qaroriga ko'ra nomzod ishga olinayotgan bo'linma rahbariyati tomonidan mazkur yo'nalishni nazorat qiluvchi rahbar o'rinbosari va Kadrlar bo'linmasi rahbari bilan kelishilgan holda tuzilgan xizmat ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi. Xizmat ma'lumotnomasiga Tekshiruv natijalari to'g'risidagi hisobot nusxasi ilova qilinadi.

30. Tekshiruv natijalari bo'yicha korrupsiyaviy xatarlar aniqlangan va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etilgan nomzod ishga olingan taqdirda xodimning rahbari tavsiya etilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini nazorat qilish uchun javobgar hisoblanadi.

VII. Tekshiruvni rasmiylashtirish va hujjatlarni saqlash muddatlari

31. Nomzodni tekshirish natijalari (shu jumladan tekshirish natijalari to'g'risidagi Xulosa va boshqa tegishli hujjatlar va/yoki ma'lumotlar) konfidensial harakterga ega va Institutning tanlov jarayonida hamda nomzodni va boshqa uchinchi shaxsni tekshirishda qatnashmagan xodimlarga oshkor etilishi mumkin emas.

32. Ishga qabul qilingan taqdirda, nomzodni tekshirish natijalari xodimning shaxsiy hujjatlarida (O'zbekistan Respublikasi qonunlarida belgilangan muddat va tartibda majburiy saqlanishi kerak.

33. Institutda ishga qabul qilinmagan nomzodlarning tekshirish natijalari, agar (O'zbekistan Respublikasi qonunlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, uch yil davomida Inson resurslarini boshqarish bo'limida (kadrlar bo'limida) albatta saqlanishi lozim.

IX. O'zgartirishlarni kiritish tartibi

Ushbu Yo'riqnoma (O'zbekistan Respublikasi qonunchiliga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda va/yoki nomzodlarni tekshirish jarayonini takomillashtirish ehtiyoji bo'lganda qayta ko'rib chiqilishi va tuzatilishi kerak.

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi institutiga ishga qabul
qilinayotgan nomzodlarni tekshirish
bo'yicha Yo'riqnomasiga
2 -ilova

Nomzodni ishga qabul qilishi yuzasidan sinov natijalari bo'yicha xulosa

nomzod

ishga qabul qilish yuzasidan sinov natijalari bo'yicha xulosa

*(Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi institutining
huzuridagi akademik litsey va texnikumlar)*

«» _____ yil № _____

1. Asosiy ma'lumotlar	
1.1	Nomzodning F.I.Sh
1.2	Tug'ilgan vaqti
1.3	Holat / vakansiya
1.4	Bo'linma
1.5	Telefon raqami
1.6	El.pochta manzili

2. Ish tajribasi	
2.1	Avvalgi ish joylari (teskari xronologik tartibda). lavozimlari
2.2	Avvalgi ish joylaridan salbiy munosabatlarning mavjudligi

Ha _____ Yo'q

Izoh (lar):

Manba (lar):

Tekshiruv natijalari

<p>Yo'riqnomaning 12-bandida 3.1 nazarda tutilgan hujjatlarning to'liq jamlanmasi olinganmi?</p>	<p>Ha _____ Yo'q</p> <p>Topshirilmagan hujjat (lar):</p> <p>Yo'qligining sabab (lar)i:</p>
--	--

3.2	<p>Nomzoddan olingan hujjatlar va ma'lumotlarda, jumladan, ma'lumotnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarda shubhali holatlarning hamda ba'zi ma'lumotlarni yashirish va/yoki soxtalashtirish belgilarining mavjudligi</p>	<p>_____ Ha _____ Yo'q</p> <p>Izoh (lar):</p> <p>Manba (lar):</p>
3.3	<p>Nomzodda sudlanganlik holati va/ yoki korrupsiyaviy qilmishlar bilan javobgarlikka tortilish holatlarining mavjudligi</p>	<p>_____ Ha _____ Yo'q</p> <p>Izoh (lar):</p> <p>Manba (lar):</p>
3.4	<p>Boshqaruv lavozimlarini egallashga nisbatan ta'qiqning mavjudligi (boshqaruvchi lavozimiga nomzod uchun)</p>	<p>Ha _____ Yo'q</p> <p>Izoh (lar):</p> <p>Manba (lar):</p>
3.5	<p>Nomzodning va yaqin qarindoshlarining Institut xodimlari, davlat mansabdor xizmatchilari bilan bog'diqlik belgilarining mavjudligi:</p>	<p>_____ Ha _____ Yo'q</p>
	<p>1) Xozirgi vaqtda ishga nomzod (o'rindoshlik asosida) Institut muassasalarida lavozimni egallab turibdi yoki davlatning boshqa amaldoridir</p>	<p>(agar ha bo'lsa, ish joyi, lavozimi, asosiy majburiyatlarini ko'rsatish hamda Institutda ishlash uchun ruxsatnomaning mavjudligini tekshirish lozim)</p> <p>Izoh (lar):</p> <p>Manba (lar):</p>
	<p>2) Ishga nomzod institutning sobiq xodimi yoki</p>	<p>Ha _____ Yo'q</p> <p>(agar ha bo'lsa, ishlagan davri, ish joyi, lavozimi,</p>

	davlatning boshqa amaldori	asosiy majburiyatlarini ko'rsatish lozim) Izoh (lar): Manba (lar):
	3) Nomzodning yaqin qarindoshlari institutda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar yoki davlatning boshqa amaldorlari mavjudligi	_____ Ha _____ Yo'q (agar ha bo'lsa, FISH va qarindoshlik darajasi, ish joyi, lavozimi, asosiy majburiyatlari ko'rsatilishi lozim) Izoh (lar): Manba (lar):
3.6	Nomzodda manfaatlar to'qnashuvi alomatlarining mavjudligi:	_____ Ha _____ Yo'q
	1) nomzod va uning yaqin qarindoshlari institutda manfaatlar to'qnashuviga olib keluvchi mavqega ega	_____ Ha _____ Yo'q (agar ha bo'lsa, FISH va qarindoshlik darajasi (agar to'qnashuv nomzodning qarindoshlari bilan bog'liq bo'lsa), bo'linma nomi, lavozim ko'rsatilishi lozim) Izoh (lar): Manba (lar):
	2) nomzod yoki uning yaqin qarindoshlari biror bir tashkilotning ustav kapitalida ochiq savdoga qo'yilmagap aksiyalariga yoki ulushlariga yoki "Toshkent" Respublika fond birjasida yoxud boshqa bir fond birjada 5% yoki undan ortiq qimmatli qog'ozlariga egalik qiladi, yoki boshqa kompaniyalar faoliyati natijasida boshqa shaxsiy manfaatlarga ega	_____ Ha _____ Yo'q (agar ha bo'lsa, FISH va qarindoshlik darajasi (agar to'qnashuv nomzodning qarindoshlari bilan bog'liq bo'lsa), bo'linma nomi, lavozim ko'rsatilishi lozim) Izoh (lar): Manba (lar):
	3) Boshqa belgilar	_____ Ha _____ Yo'q Izoh (lar): Manba (lar):
3.7	Nomzod va / yoki uning qarindoshlari haqida murosasiz ma'lumotlar, jumladan	_____ Ha _____ Yo'q Izoh (lar):

	korrupsiya, firibgarlik yoki boshqa noqonuniy ishlarda ishtirok etish to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lsa	Manba (lar):
3.8	Nomzodning boshqa xavf indikatorlari	_____ Ha _____ Yo'q Izoh (lar): Manba (lar):
3.9	Boshqa ma'lumotlar (o'tkazilgan bo'lsa, intervyu natijalari)	<u>Ha</u> _____ Yo'q Izoh (lar): Manba (lar):

4. Xulosa	Ha/Yo'q	Izoh
3.5, 3.6 yoki 3,7 xavf indikatorlarining mavjudligi		Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi (Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul/muvofiqlashtiruvchi)ning qo'shimcha xulosasi talab etiladi.
Oxirgi natija		(ijobiy baho / yoki Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi (Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul/muvofiqlashtiruvchi)ning qo'shimcha xulosasi talab etiladi)
TAVSIYALAR (aniqlangan xavflarni hisobga olgan holda)		

4.1 Meyoriy-huquqiy nazorat bo'limi (Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul/muvofiqlashtiruvchi)ning xulosasi, jumladan, tavsiyalar (zarur hollarda)

Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi (korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul/muvofiqlashtiruvchi):

(FISH)

_____ (imzo)

_____ (sana)